XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 26-noyabr VII-18-123-2-34-K/25 G‘ijduvon tumani

G‘ijduvon tumanidagi geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-oktabrda qabul qilingan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-maydagi VM-24/24-35-sonli yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda bir qator ishlar amalga oshirildi.

G‘ijduvon tumanidagi 70 mahalla fuqarolar yig‘inining Kengash vakillari ishtirokida ko‘chalar qayta xatlovdan o‘tkazilib, mavjud ko‘chalar toifalarga ajratilib, Davlat kadastrlari palatasi G‘ijduvon tumani filialida elektron xaritalar shakllantirildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish komissiyasining 2025-yil 28-oktabrdagi 05-19-18915-sonli ekspertiza xulosasiga asosan G‘ijduvon tumanidagi nomsiz ko‘chalarga nom berish yuzasidan berilgan takliflarning 19 tasi muvofiq deb topilib, aniqlangan 19 ta ko‘chalar (ko‘cha, tor ko‘cha, berk ko‘cha) ro‘yxati shaklantirildi. Shuningdek, tuman hokimining 2025-yil 30-sentabrdagi 01-09/3159-sonli xati asosida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 30-oktabrdagi 03/08-12367-sonli xati asosida Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert xulosalari olindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli hamda 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan, G‘ijduvon tumanidagi 70 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 19 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan ekspertiza xulosasi tasdiqlangan.

G‘ijduvon tumanida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi H.Rasulovning axborotini atroflicha muhokama qilib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 28-oktabrdagi 05-19-18915-sonli Ekspertiza xulosasi hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi H.Rasulovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. G‘ijduvon tumani geografik obyektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman ichki ishlar boshqarmasi (B.Sharipov) tuman mahallalaridagi nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalarga aholini ro‘yxatga qo‘yish va tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi G‘ijduvon tumani filiali (N.Hayitov), tuman stasistika bo‘limi (N.Jahonqulov)larga:

- yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik obyektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha tuman stastistika ma’lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati(I.Nuritov), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi H.Rasulov bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Shamsiyeva) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (H.Rasulov)lar zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **RAXMATOVA MUSALLAM LATIPOVNA**

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-18-123-2-34-K/25 -son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumanidagi geografik obyektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi (X,Y)		Geografik obyektning joylashuvi *(mahalla)*	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
		Boshlang‘ich	Oxirgi					
1.	Ko‘cha	64° 40' 1,580" E 40° 5' 0,673" N	64° 39' 55,071" E 40° 5' 4,484" N	Gulistonobod, Abdulla Qahhor mahallalari	nomsiz	Boyxotin	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Berk ko‘cha	64° 39' 59,881" E 40° 4' 58,506" N	64° 39' 55,549" E 40° 5' 1,377" N	Gulistonobod mahallasi	nomsiz	Boyxotin 1-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Tor ko‘cha	64° 40' 0,420" E 40° 4' 59,124" N	64° 40' 3,648" E 40° 4' 57,404" N	Gulistonobod mahallasi	nomsiz	Boyxotin 1-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk ko‘cha	64° 40' 1,839" E 40° 5' 1,145" N	64° 40' 6,613" E 40° 4' 58,760" N	Gulistonobod mahallasi	nomsiz	Boyxotin 2-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Berk ko‘cha	64° 33' 47,827" E 40° 2' 46,937" N	64° 33' 48,177" E 40° 2' 43,234" N	Gulistonobod mahallasi	nomsiz	Boyxotin 3-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Berk ko‘cha	64° 33' 57,120" E 40° 2' 56,148" N	64° 33' 35,629" E 40° 2' 54,164" N	Gulistonobod mahallasi	nomsiz	Boyxotin 4-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Berk ko‘cha	64° 34' 20,396" E 40° 2' 45,181" N	64° 34' 21,422" E 40° 2' 52,998" N	Chag'dari mahallasi	nomsiz	Chag‘dari 1-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

8.	Tor ko‘cha	64° 40' 3,265" E 40° 8' 57,657" N	64° 40' 3,938" E 40° 8' 43,230" N	Chag'dari mahallasi	nomsiz	Chag‘dari 1-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Tor ko‘cha	64° 40' 4,121" E 40° 8' 45,099" N	64° 39' 58,082" E 40° 8' 45,044" N	Chag'dari mahallasi	nomsiz	Chag‘dari 3-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Ko‘cha	64° 40' 4,455" E 40° 8' 48,141" N	64° 39' 57,794" E 40° 8' 48,128" N	Qoraxoni mahallasi (Sobiq Olmazor)	nomsiz	Vahm hovli	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Berk ko‘cha	64° 40' 4,852" E 40° 8' 53,558" N	64° 39' 57,159" E 40° 8' 50,956" N	Qoraxoni mahallasi (Sobiq Olmazor)	nomsiz	Vahm hovli 1-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Berk ko‘cha	64° 45' 19,519" E 40° 3' 50,796" N	64° 32' 15,812" E 40° 2' 27,669" N	Qoraxoni mahallasi (Sobiq Olmazor)	nomsiz	Vahm hovli 2-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Berk ko‘cha	64° 41' 29,215" E 40° 9' 22,836" N	64° 41' 56,025" E 40° 9' 45,388" N	Qoraxoni mahallasi (Sobiq Olmazor)	nomsiz	Vahm hovli 3-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Ko‘cha	64° 41' 46,927" E 40° 9' 38,825" N	64° 41' 52,982" E 40° 9' 30,588" N	Xalqobod mahallasi	nomsiz	O‘rta hovli	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Tor ko‘cha	64° 41' 26,665" E 40° 9' 38,024" N	64° 41' 40,179" E 40° 9' 36,817" N	Xalqobod mahallasi	nomsiz	O‘rta hovli 1-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Tor ko‘cha	64° 36' 50,528" E 40° 2' 3,269" N	64° 36' 46,749" E 40° 2' 0,518" N	Xalqobod mahallasi	nomsiz	O‘rta hovli 2-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Berk ko‘cha	64° 37' 35,347" E 40° 2' 8,846" N	64° 37' 32,820" E 40° 2' 1,159" N	Xalqobod mahallasi	nomsiz	O‘rta hovli berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Tor ko‘cha	64° 40' 1,580" E 40° 5' 0,673" N	64° 39' 55,071" E 40° 5' 4,484" N	Sohibiyon mahallasi	nomsiz	Quyi Denov 1-tor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Berk ko‘cha	64° 39' 59,881" E 40° 4' 58,506" N	64° 39' 55,549" E 40° 5' 1,377" N	Sohibiyon mahallasi	nomsiz	Quyi Denov 4-berk	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

							ko‘rsatilgan.	